

Вилоят республикада гўшт етиштириш бўйича 9-ўрин ва сут етиштириш бўйича 2-ўринда туриб, таҳлил қилинаётган даврда аҳоли жон бошига гўшт етиштириш 1,7 мартага ва сут етиштириш 1,6 мартага ўсган.

Фермерлар томонидан ҳам сут етиштириш ривожланмоқда. Мисол учун, 2023 йил 2016 йилга нисбатан 4,7 марта кўп сут етиштирилиб, бунга чорва маҳсулдорлигининг (2,1 мартага) ҳамда бош сонининг (1,9 мартага) ошгани асосий сабаб ҳисобланади. Ҳозирги вақтда фермерлар томонидан 1 бош сигирдан соғиб олинаётган сут миқдори 1,6 тоннани ташкил этиб, 2010 йилга нисбатан 1,3 мартага кўпайган. Бу ҳукумат дастури асосида 2016-2023 йилларда хориждан 3233 бош зотдор сигирлар олиб келинганлиги билан боғлиқдир. Импорт қилинган сигирлар сони бўйича Хоразм вилояти республикада Тошкент вилоятидан кейинги 2-ўринни эгаллаб, улуши 10 фоизни ташкил этади.

Шунга қарамадан, аҳоли чорвачилигига нисбатан маҳсулдорлик нисбатан 1,6 мартага пастлича қолмоқда. Бу вилоятда чорвачилик маҳсулдорлиги ўртача республика кўрсаткичига нисбатан юқори бўлсада, соҳа олдидаги муҳим масалалардан бир маҳсулдорликни оширишдан иборатдир. Бу уни чорвачилик ривожланган (АҚШ, Канада ва Германия каби) давлат даражасига олиб чиқиш устувор аҳамият касб этади. Бунинг учун эса бир бош сигирдан соғиб олинadиган сут миқдорини 3,1 мартага ва гўшт олишни эса 3,3 мартага ошириш талаб этилади.

Чорва маҳсулдорликни ошириш четдан чорва олиб келишдан ташқари, вилоятда сунъий уруғлантириш ишларини ривожлантириш, аҳолига кўрсатилаётган хизмат ҳажми ва сифатини ошириш талаб этади. Бу учун эса ўрта маълумотли ветеринария врачлари тайёрлашни йўлга қўйиш, уларга меҳнатига муносиб ҳақ тўлаш ҳамда зарур асбоб-ускуналар (локал дъюм идишлар) билан жиҳозлаш лозим.

Шу асосда минтақада озиқ-овқат маҳсулотлари етиштириш даражасини мунтазам равишда ошириб озиқ-овқат хавфсизлигини тaminлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

BUXORO VILOYATIDA VUJUDGA KELAYOTGAN YANGI TURISTIK HUDUDLAR

G.D.Xasanova, i.f.n., dots.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

*“Buxoroning ko‘hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma’no bor.
Bu erdagi qadimiy obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari,
beqiyos an’analari asrlar osha yashab kelmoqda.*

*Chet elliklarning, tarixshunos va mutaxassislarning ularga
qiziqishi doimo yuqori bo‘lgan. Bundan unumli foydalanish kerak”.*

SH.M.Mirziyoev

Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o'zida o'ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o'z o'rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator sohalarni qamrab olgandir. Bundan tashqari, turizm aholining bandligiga anchagina ta'sir o'tkazmoqda. Mutaxassislarining fikricha, hozirgi zamon turizmi va uning bilan bog'liq sohalarida jahondagi har sakkizinchi xodim band. Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining uch etakchi eksport sohalari qatoriga kiradi. U faqatgina neft qazib olish va qayta ishlash hamda avtomobilsozlik sanoatlaridagina keyin turadi. Shu sababli, 27 sentyabr – "Butunjahon turizm kuni" deb e'tirof etilgani bejiz emas.


"Buyuk ipak yo'li" nomi bilan tarixga kirgan, qadimgi karvon yo'llarining Buxoro sarhadlaridan eramizdan oldingi II asrda o'tganligi ham din, hunarmandchilik, madaniyat, o'ziga xos an'analar va urf-odatlarining o'zaro uyg'unlashuvi hamda rivojlanishiga xizmat qilganini alohida ta'kidlash joiz. Buxorodagi birgina tarixiy-me'moriy obidalar soni 1000 ga yaqin. E'tiborli jihati shundan iboratki, viloyatdagi madaniy meros ob'ektlarining ko'p qismi YUNESKO tomonidan himoyaga olingan.

Ichki turizm bo'yicha individual tartibdagi ziyoratchilarni hisobga olganda mahalliy sayohatchilar soni qariyb 2 million nafarni tashkil etdi. Bu 2016 yildagiga nisbatan 15 foizga ko'p. Buxoro viloyatidagi "ETTI PIR" bo'yicha turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif ar-Revvari, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va CHorbakr majmualarida keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayapti.

Tarixdan bizga ma'lumki, "ETTI PIR"irlardan birlari - avliyolar sultoni, qutbi zamon, olimi Rabboniy, shayxush shuyux, buyuk tarbiyachi, xojagon tariqatining asoschisi Hazrat Abdulxoliq ibn Abduljamil – Hazrat Abdulxoliq Xojai Jahon, ya'ni jahonning buyugi, jahonning xojasi nomi bilan mashhur Xo'ja-Abduxoliq G'ijduvoni Xizr a.s, Hazrat YUsuf Hamadoni, imom Sadridin, Xo'ja Niyoz Xorazmiy (Boboyi Laqlaqagi)lardan (IX-X asrlar) ta'lim olganlar. "Tuhfat-az-zoirin" kitobida Hazrat Abulxoliq G'ijduvoniuning ustozlari - Hazrat Boboyi Laqlaqagi (Xo'ja Niyoz Xorazmiy) haqlarida ma'lumot berilgan.

Romitan qadimiy va salohiyatli hudud, uning ilk tarixi Afsonaviy hukmdor Afrosiyobga borib taqaladi. Bular ulug' avliyolar Xoja Ubbon, Xoja Za'faron, Xoja Niyoz Xorazmiy - Hazrat Boboyi Laqlaqag'iy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Boboyi Samosiy, Hakim Mulla Mir hazratlari, CHoriqu'lboy kabi saxovatpesha insonlari bilan mashhur yurt.

Xoja Niyoz Xorazmiy - Hazrat Boboyi Laqlaqagiy taxminan XI asrning 70 yillarida tug'ilib, XII asrning birinchi yarim yilligida yashab ijod etgan. Xoja Niyoz Xorazmiy - Hazrat Boboyi Laqlaqag'iy Abduxoliq G'ijduvoni asos solgan xojagonlik tariqati zanjirining boshlanishida turuvchi ulug' avliyo sanaladi.



Hazrat o'z tirikchiliklarini o'tkazish uchun dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Xalqqa nafi teksin deb o'z mablag'lari hisobidan sobiq Zarafshon daryosi ustida yog'och ko'priq qurdirganlar.

Ulug' pir, buyuk alloma, valiyulloh Xoja Niyoz Xorazmiy xalq orasida "Hazrat Bobo Laqlaqagiy" nomi bilan ulug'langan. U kishi tasavvuf olamining ulug' avliyosi, xojagonlik tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniya ustozlik qilganlar. SHu sabab Xoja Niyoz

Xorazmiy Abduxoliq G'ijduvoniya asos solgan xojagonlik tariqati zanjirining boshlanishida turuvchi ulug' avliyo sanaladi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya maqbaralari oldida o'rnatilgan lavhada Xoja Niyoz Xorazmiy Abduxoliq G'ijduvoniya ustozlik qilganliklari to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilgan. SHuningdek, "ETTI PIR" to'g'risida bitilgan ko'plab ilmiy asarlarda, jumladan, Sadridin Salim Buxoriy, tarixchi olim H. To'raevning ilmiy asarlarida ham Hazratning Abduxoliq G'ijduvoniya ustozlaridan biri ekanliklari alohida ta'kidlangan.

Hazrat o'z tirikchiliklarini o'tkazish uchun dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar.

Xoja Niyoz Xorazmiy taxminan XI asrning 70 yillarida tug'ilib, XII asrning birinchi yarim yilligida yashab ijod etgan. Hazrat Abduxoliq G'ijduvoniya yoshlik yillarida saboq olmoq uchun G'ijduvondan Hazratning huzuriga piyoda kelar va har safar Zarafshon daryosi ustida qurilgan "Puli Laqlaq" ko'prigidan o'tar ekanlar. Ko'prikdan o'tishda ko'priq doimo qimirlab turgani sabab "Puli Laqlaq" ya'ni "Laqlaq ko'prigi", qimirlaydigan ko'priq deb atalgan.

Mazkur ko'priknii Xoja Niyoz Xorazmiy o'z mablag'lari hisobidan qurdirgan. Aytishlaricha bu ko'prikdan to Zarafshon daryosi ustida CHoriqulboy ko'prigi qurilgunga qadar foydalanib kelingan bo'lib, mazkur ko'priq asrlar davomida qayta - qayta ta'mirlanib turilgan.

YAqinda Xoja Niyoz Xorazmiy tomonidan sobiq Zarafshon daryosi ustida qurilgan yog'och ko'priknii tagzaminii, yog'ochdan qilingan qoziiq (mix)lari, obi g'ishtdan qilingan asosining qoldiqlari topildi.

Xoja Niyoz Xorazmiy Abduxoliq G'ijduvoniya saboq bergan yillari yoshlari ancha ulg'aygan bo'lib, u kishiga nisbatan "Bobo" so'zini ilk bora Abduxoliq G'ijduvoniya qo'llagan ekanlar.

Shuningdek, "Tuhfatul zoirin" asarida keltirilishicha Abduxoliq G'ijduvoniya shayx Niyoz Xorazmiyning hurmatini joyiga qo'yish uchun ko'p xizmatlarini qilib, duolarini olgan ekanlar.

Hazrat “Boboi tabarkobon”, ya’ni bolta bilan uruvchi bobo nomi bilan ham mashhur bo’lganlar. Bu nom u kishiga o’z shogirdlarining diniy va ma’naviy tarbiyasiga nisbatan o’ta talabchan bo’lganliklari uchun berilgan ekan.

Tarixiy manbalarda bitilishicha, Hazratning o’zlari ham kop marta muridlari tarbiyasi uchun atrof hududlarga borib turganliklari, jumladan, vohaning deyarli barcha tumanlarida ko’plab marta safarlarga chiqqanliklari aytilgan.

Xo’ja-Abduxoliq G’ijduvoniylar Xizir a.s 1103 yilda tavallud topganlar. U kishi



ta’lim olayotgan vaqtlarida (taxminan 1115-1120 yillarda) validai muhtaramalariga Hazrat Boboyi Laqlaqagi (Xo’ja Niyoz Xorazmiy) ustozlaridan ta’lim olishga ketayotganlari haqida aytanlari haqida ma’lumotlar mavjud. Bu zoti sharifning tabarruk qabrlari Rometan tumani Laqlaqa qishlog’idadir. Ushbu ziyoratgoh sho’rolar zamonasida vayron etilgan, Boboyi Laqlaqagi jome’lari buzilgan edi.

Bugungi kunda Rometanlik tadbirkor sahovatpesha inson Husenov Nizom YUsofovichning say’-harakati bilan Hazrat Niyoz Xorazmiy (Boboyi Laqlaqagi) qabrlari qaytadan restavratsiya

qilindi.

Hazrat Niyoz Xorazmiy (Boboyi Laqlaqagi) maqbaralari atrofidagi qabrlar

kovlab (mayitlarning yaqinlari bilan kelishilgan holda) olinib, boshqa erga ko’chirildi. Maqbara tepasiga 3 nafar gumbazlar o’rnatildi, maqbara ichida va tashqarisida Qur’oni Karim oyatlaridan yozdirildi. Maqbara yonida esa “Tug’” o’rnatildi. Maqbarani yoritib turish uchun elektr simlari elektr simlari va doimiy gulzorni sug’orib turish uchun suv quvurlari tortildi. Maqbara atrofida obodonlashtirish-ko’kalamzorlashtirish ishlari olib borilib, juda ham ko’p gullar, daraxtlar ekildi, gulzor yaratildi, favvora qurildi. Maqbara atrofidan yo’l ochilib, ziyoratga keladigan ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratildi.



Maqbara ichiga Hazrat Niyoz Xorazmiy (Boboyi Laqlaqagi) qabrlari ustiga Navoiy viloyatidan marmar yodgorlik toshi olib kelinib, yozdirilib qo’yildi, maqbaraga naqshkor darvozalar o’rnatildi.

Maqbara yonidagi qabristonda “Shahidlar maydonchasi” (Xotira maydoni) tashkil etilib, unda marmardan kitob yasatilib, kitobda Ulug‘ Vatan urushida shahid ketgan Rometan tumani Laqlaqa qishlog‘ilik yurtdoshlarimiz nomlari bitilib,



Yaqin yillarda Hazrat Niyoz Xorazmiy maqbaralarini shu ko‘rinishga keltirish rejalashtirilgan

abadiylashtirildi. Uning atrofida gullar, archa va manzarali daraxtlar ekildi.

Kelgusida mazkur ziyoratgohni yanada obodonlashtirish maqsadida, uni alohida ansambl' sifatida shakllantirish, atroflarini to‘liq devor bilan o‘rab olish, kirish darvozasi, ayvonlar qurish, manzarali daraxt va gullar o‘tqazish, soya - salqin bo‘lishi uchun hovuz va favvoralar o‘rnatish belgilangan.

Bunday tarixiy obidalarni qayta tiklash va obodonlashtirish esa, kelajak avlodlarimizga buyuk o‘tgan ajdodlarimizning kimlar ekanliklari, ularning xalq uchun, jamiyat uchun, ona yurti uchun qilgan ezgu ishlari to‘g‘risida ma‘lumotlarni etkazish bilan birga, yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda va iqtisodiyotimizni yuksaltirishda juda katta omil bo‘lib xizmat qiladi.

INSON SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

G.D.Xasanova, i.f.n., dots.

M.V.Tojiyeva, mustaqil izlanuvchi

Buxoro muhandislik-texnologiya institute

Sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichining asosiy xususiyati ishlab chiqarish omillari tizimida inson rolining keskin oshishi bo‘lib, bu iqtisodiy ustuvorliklarni chuqur ijtimoiy qayta yo‘naltirish zarurligini taqozo etadi.

Inson ijtimoiy-iqtisodiy tizimning markazida joylashgan bo‘lib, uning ehtiyojlarining butun spektrini, shu jumladan o‘zini o‘zi anglash ehtiyojini maksimal darajada qondirish ishlab chiqarishning pirovard maqsadi va uning barqaror rivojlanishining shartiga aylanadi. Birinchi o‘rinda inson salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish va ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash turadi.

Insonni ko‘p qirrali transformatsiyalar markaziga kiritilishi - ularning maqsadi, harakatlantiruvchi kuchi va eng muhim sharti sifatida erishishi bilan bog‘liq. Iqtisodiyotning inson salohiyatiga bog‘liqligi tobora ortib bormoqda, uning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilganligi, uning tarkibida nomoddiy qadriyatlar,